

## BADIY ASARDA IJODKOR SHAXS OBRAZI TASVIRI

**Rasulova Sarvinoz Sadatovna,**

*ToshDO‘TAU dotsenti v.b.*

*E-mail: sarvina\_ok@mail.ru*

**Annotatsiya.** Bu maqolada asarlarda ijodkor shaxs obrazi, uning yaratilishi, asarda tutgan o‘rni Tohir Malikning “Qaldirg‘och” asari misolida tahlil qilinadi. Asarda bosh qahramon Abdulla Avloniyning diplomatik faoliyati yoritiladi. Maqolada ijodkor shaxs obrazi turli jihatdan tadqiq etiladi, fikrlar misollar bilan isbotlanadi. Yozuvchining obraz yaratish mahorati tekshiriladi. Yozuvchi asarda deyarli har bir personaj hayoti, taqdiri, quvonchi va fojeasi vositasida jamiyatdagi ko‘plab muammolarga e‘tibor qaratadi.

**Kalit so‘zlar:** mavzu, g‘oya, obraz, ijodkor shaxs, personaj, fantastik, detektiv va ma‘rifiy asarlar, prototip.

**Аннотация.** В данной статье анализируется образ творческой личности в произведениях, его создание и место в произведении на примере романа Тахира Малика «Ласточка». Произведение освещает дипломатическую деятельность главного героя, Абдуллы Авлони. В статье рассматривается образ творческой личности с разных точек зрения, а идеи подкрепляются примерами. Исследуется мастерство писателя в создании образа. Писатель обращает внимание на множество проблем общества через жизнь, судьбу, радости и трагедии почти каждого персонажа произведения.

**Ключевые слова:** тема, идея, образ, творческая личность, персонаж, художественная литература, детективно-познавательные произведения, прототип.

**Annotation.** This article analyzes the image of a creative person in works, its creation, and its place in the work using the example of Tahir Malik's "Swallow". The work highlights the diplomatic activities of the main character, Abdulla Avloni. The article examines the image of a creative person from various perspectives, and the ideas are proven with examples. The writer's skill in creating an image is examined. The writer draws attention to many problems in society through the life, fate, joy, and tragedy of almost every character in the work.

**Keywords:** theme, idea, image, creative person, character, fiction, detective, and educational works, prototype.

**Kirish.** Tohir Malik ijodi o‘zbek adabiyotiga fantastik, detektiv va ma‘rifiy asarlari bilan yangi yo‘nalishlarni olib kirdi. U o‘z ustida ko‘p ishlashni odat qilgan ijodkordir. Bu haqda adibning o‘zi yozuvchi, jurnalist Shukur Qurbon bilan qilgan suhbatida shunday deydi: “Men nima uchun detektiv, ya‘ni jinoyatlar jarayoni bayon etilgan asar yozishga harakat qilaman? “Alvido, bolalik”, “Shaytanat”, “So‘nggi o‘q”, “Murdalar gapirmaydilar”, “Charxpalak”, “Ov” va nihoyat “Talvasa”... Asosiy sabab, mening asl maqsadim boshqa tomonda. Men jamiyatning jinoyatlarsiz ravnaq topishini orzu qilaman. Hech kimning bolasi jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi. Hech qaysi ota-ona farzandi tug‘ilganda “o‘g‘lim yoki qizim o‘g‘ri bo‘lsin, giyohvand bo‘lsin”, deb niyat qilmaydi, lekin afsuski, ma‘lum yoshga etganda ayrimlar jinoyat ko‘chasiga burilib, shaytanat olamiga kirib ketganlarni o‘zlari ham bilmay qoladi”. Yozuvchi maqsadi asarlarida jamiyatning og‘riqli nuqtalaridan biri – jinoyat olami, ya‘ni shaytonlar etovidagi olamning naqadar qabih ekanini ko‘rsatishdir.

Adib har bir asari uchun mavzu, g'oya topadi va har bir asariga qahramonlarni ham o'zi tanlaydi. Ayrim qahramonlarni hayotdan olsa, ayrimlarini xayolida yaratadi. Hayotdan olingan qahramonlarni aks ettirish uchun esa o'sha shaxsning butun hayoti va uni o'rab turgan muhit, davrni ham sinchiklab o'rganadi. Ignadan ip o'tkazgan kabi qahramonning hayot yo'lini mayda ikir-chikirlarigacha tahlil qiladi. Shundagina yozuvchi yaratgan qahramon sevimli, asari esa o'qishli, yashovchan bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tohir Malikning "Qaldirg'och" ("Savohil" nomi bilan qayta ishlangan) qissasi biografik xarakterdagi asar sanaladi. Ushbu asar buyuk ma'rifatparvar va ziyolilardan biri Abdulla Avloniyga bag'ishlanadi. "Qaldirg'och" qissasi garchi Avloniyga bag'ishlangan bo'lsa-da, uni Avloniy tarjimai holi, mazkur asarni esa xujjatli qissa deb qabul qilib bo'lmaydi. Asar prototip asosida yozilgan. Prototip asosida asar yozish o'zbek adabiyotida keng tarqalgan. Masalan, Hamid Olimjon "Zaynab va Omon" dostonida buxorolik Zaynab Omonova hayotini tasvirlab bergan. Oybek esa "Quyosh qoraymas" asarida Bektemir obrazini yaratganda qashqadaryolik Qurbon O'ljaboev hayotini asos qilib oladi. Yozuvchi Tohir Malikning "Qaldirg'och" qissasi ham yuqorida keltirib o'tilgan asarlarning davomchisidir. Yozuvchi asarda bosh qahramon Asadulla Mira'lam siymosida o'zbek ziyolilarining eng yaxshi fazilatlarini jamlashga harakat qiladi.

Tohir Malik asarda Abdulla Avloniyning 1919-yilda Afg'onistonga elchi bo'lib borgan davrini asos qilib oladi. Asar qaldirg'och haqidagi rivoyat bilan boshlanadi. Asar adib hayotida bo'lib o'tgan ayrim voqealarni qamrab oladi.

Yozuvchi asarni hayotiy fakt va badiiy to'qima asosida yoritib beradi. Xususan, Abdulla Avloniy haqida biz ilmiy adabiyotlarda, darsliklarda ko'p o'qiganmiz. Biz Avloniyning shoir, jadid, pedagog va ma'rifatparvar sifatida yaxshi bilamiz. Ushbu qissada adibni diplomat va tarjimon bo'lganligini ham bilishimiz mumkin.

Nafosatshunos olim Yuriy Borevning "Talqin va baholash san'ati" kitobida olim shunday deydi: "Badiiy asarga yozuvchining shaxsiyati muhrlangan bo'ladi". Darhaqiqat, har qanday asarda yozuvchining hayoti, ijodi, u yashagan muhit, davr bilan bog'liq bo'lgan bir shingil voqea, hodisa yoki bo'lmasa bir jumla gap aks etishi mumkin. Yozuvchi Tohir Malikning ushbu asarida Avloniyning hayotiga bog'liq bo'lgan voqealar hikoya qilinadi.

Tohir Malik "Qaldirg'och" qissasini yozishdan oldin ustoz Begali Qosimov bilan suhbatlashib, Avloniy haqida badiiy asar yozish niyati borligini aytadi. Shundan so'ng bir necha yil eshitgan va to'plagan manbalariga tayanib, Abdulla Avloniy tavalludining 100 yilligi munosabati bilan ushbu asarni yozadi. Adib asarda Avloniyning "Afg'on sayohati" maqolasidan keng foydalanadi. "Afg'on sayohati" kundaligida xalqimiz, mamlakatimiz tarixida g'oyat og'ir bo'lgan 1919 yil voqealarini, ochlik, vayronagarchilikni samimiy va ro'yirost etkazib beradi.

Asar orqali biz 1919-yilda olib borilgan diplomatik munosabatlar haqida fikr-mulohaza yuritishimizga imkoniyat tug'iladi. Asar bejiz "Qaldirg'och" deb nomlanmagan,

chunki qaldirg'och bahorning shiddatli shamollari, momaqaldiroqlarini ko'rishi bor va bu narsa uning qismatida bitilgan. Qaldirg'och tinchlik va totuvlik belgisidir.

Tohir Malikning ushbu asarni yozishdan maqsadi, sho'ro davrida yurtimizda olib borilgan siyosatni qisman bo'lsa-da, ochib berish va O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi diplomatik aloqalar qay darajada olib borilganligi, unda ijodkor shaxsning diplomatiya sohasidagi faoliyatini ochib berish edi. Asarda to'qima obrazlar ham ishtirok etadi, shuningdek, tarixda mavjud real shaxslar ham kiritiladi. Asardagi to'qima obrazlar: Afg'on sarbozi G'ulomqodir, Muhiddin, Said G'afforbek kabilar; Afg'on amiri Habibullaxon, o'g'li Omonullaxon, tashqi ishlar noziri Mahmud Tarzi, Ushinskiy, Mirkomilboy kabi tarixiy shaxslar.

**Muhokama va natija.** Yozuvchi asarda deyarli har bir personaj hayoti, taqdiri, quvonchi va fojeasi vositasida jamiyatdagi ko'plab muammolarga e'tibor qaratadi. Muallif asar bosh qahramoni Asadullaning ruhiyati va faoliyatini uning hayoti davomidagi oilaviy munosabatlari bilan bog'liqlikda talqin etib boradi. Bundan tashqari uning ichki dunyosini, takrorlanmas xarakterini, adolat uchun, yangilik uchun kurashlarini chinakam haqqoniylik va yorqinlik bilan badiiy gavdalandiradi.

Muallif asarda yana Afg'oniston va Angliya, Rossiya munosabatlariga keng o'rin beradi. Asardagi eng achinarli tasvir bu Asadullaning uyi, farzandlari va xotining yoqib yuborilishi voqeasidir. Bu voqea Asadulla uchun umri davomidagi eng katta yo'qotishlaridan biri va uning ko'z o'ngida bir umr o'chmas yodga aylanib qoladi. Asadulla taqdirning ushbu qismatidan o'zini yo'qotib qo'ymaydi, balki iroda, sabr bilan hayot zarbalarini engadi.

Asarni o'qigan kitobxon go'yo uning ichidagi voqealarda birgalikda harakat qilgandek tuyiladi. Bu narsa yozuvchining mahoratini ko'rsatib beradi. Avloniyning muharrirligi ostida Mirmuhsin Shermuhammedovning "Tarixiy ikki voqea" maqolasi tufayli "Ulamo" jamiyatida katta janjal ko'tarilishi voqeasi asarda keltirib o'tilgan. Asadulla o'shanda "Ulamo" jamiyatini "vabodan ham, o'latdan ham battar jamiyat", deb baho beradi.

Yozuvchi asarda xalq maqollaridan, hikmatli so'z va iboralardan unumli foydalanadi. Masalan,

Ko'p otgan mergan emas,

Ko'p aytgan chechan emas.

Kamabag'alning qorni to'ygani, chala boy bo'lganidir, kabi.

Qissada Afg'onistonga yuborilgan elchilik faoliyati bilan birgalikda o'tgan asrning birinchi yarmidagi xalqimiz, millatimizning madaniyati, urf-odati qaydarajada halokatli, fojiali ahvolga tushib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi faqat afg'on sayohati bilan cheklanmaydi, balki qahramonlarning o'zaro suhbatlari chog'ida o'sha davrdagi og'riqli muammolarga ishora qilish yo'llarini topadi. Masalan, Asadullaning jadidlar yo'l boshchisi Munavvar qori bilan bo'lgan suhbatlari bunga misol bo'ladi: "Jadidchilikni

o‘zingizga nomunosib ko‘rganingizdan so‘ng safimizda parokandalik bo‘ldi, xabaringiz bor, ko‘p fozillar o‘zga yo‘l tutdilar. Yo‘limiz bo‘lak, ammo marramiz bir. Ya‘ni siz millat deysiz, biz ham. Sizning:

Marizing bir tarafdin, bir tarafdin xorsan millat!  
Badandan doimo qon oldirar bemorsan – millat!” –

degan satrlaringizni unutganimiz yo‘q. Endi bemorni davolash vaqti etdi”.

Yozuvchi yuqorida keltirib o‘tilgan millat qayg‘usidagi shaxslar obrazini yaratish bilan ularning suhbatlarini diolog shaklida beradi. Yozuvchi asarda hayotiy hodisa va kishilarni material qilib oladi. Tohir Malik qissada tarixiy shaxslarni to‘qima yo‘li bilan yaratilgan xarakterlar taqdiriga chambarchas bog‘lagan holda tasvirleydi. Asarni o‘qigan kitobxon to‘qima obrazlarni shu darajada hayotiy va haqqoniy, tabiiy qilib yaratganidan ushbu obrazning aynan o‘zi hayotda bor deb o‘yleydi.

Asarda Afg‘onistonning Angliya va Rossiya o‘rtasida talash bo‘lib turgan birdavlat ekanligi, vaziyat ancha qaltis ekanligi tasvirlanadi. Bu ikki buyuk davlat o‘rtasidagi siyosiy jarayon O‘rta Osiyo xalqlarining taqdiri qay tomonga burilishini bildirar edi. Asarni o‘qigan o‘quvchi XX asr boshlaridagi yurtimiz, balki qudratli Angliya va Rossiya, Afg‘oniston tarixini biroz bo‘lsa-da bilgandek bo‘ladi va shu davrga tushib qolgandek his qiladi. Shunday asar yozish uchun, albatta, yozuvchidan puxta bilim va izlanish talab qilinadi.

Asadulla Qobulga borganda tashqi ishlar noziri Mahmud Tarzi bilan qilgan suhbatida yurtni qorong‘ulik, zulmatdan chiqarib, xalqni ilmiy qilish masalasini o‘rtaga tashleydi. Asadulla Turkistonda yoshlarni ilmga tortish maqsadida ko‘p ishlar qilinganligini va dorilfununlar ochilganligini aytib, Afg‘onistonda ham shunday maktablarni ko‘paytirish lozimligini ta‘kidleydi.

Asarning bosh g‘oyasi millatning saodati, davlatlarning tinchligi, yoshlarning tarbiyasi bilan bog‘liq jihatlarni yoritishdan iboratdir. Avloniy “Afg‘on sayohati” kundaligida ilmsiz va tarbiyasiz, yangiliklardan bexabar musulmon farzandlari O‘rta Osiyoda emas, butun Turkiston o‘lkalarida borligini ta‘kidlab o‘tadi. Bundan tashqari Avloniy Turkistonda ish boshida turgan rus boshliqlarining oddiy xalq ahvolini ko‘ra bila turib nazar-pisand etmasligidan kuyinadi. Avloniy vatan tuyg‘usi eng insoniy, eng mo‘tabar tuyg‘ulardan biri ekanligini va uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak deydi. “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti til va adabiyotdir”, – deb yozadi adib.

Tohir Malik qissada Avloniyning prototipini yaratishda uning jamiyat hayotidagi roli, o‘rnini tarixiy haqiqatga mos ravishda buzmasdan, haqqoniy tasvirleydi. Prototipga suyanish yozuvchilarning ijodiy tajribasida juda ko‘p uchraydi. Masalan, Gorkiyning “Ona” romanidagi Pavel obraziga revolyusioner ishchi Zalomovning asos bo‘lgani

mashhurdir. Prototip adabiyotshunoslikda badiiy obrazni yuzaga keltirishda negiz, asos, bosh yo‘nalish nuqta, poydevor sifatida xizmat qiluvchi real shaxs (hayotda bo‘lgan tarixiy shaxs) ma‘nosida qo‘llaniladi. Yozuvchi “Qaldirg‘och” qissasida ijodkor shaxs obrazini maroq bilan yaratgan desak adashmagan bo‘lamiz.

**Xulosa** qilib aytganda, qissada obrazlar vositasida asar mohiyatini keng ko‘lamda ifodalab beradi. Muallif asar qahramonlarining o‘zaro suhbatlarida o‘sha davr muammolariga e‘tibor qaratish yo‘lidan boradi. Yozuvchi, shuningdek, Alisher Navoiy, Bobur, Mirzo Bedil, Robindranat Tagor she‘rlari, hikmatlari, e‘lon qilinmagan xotiralaridan ham foydalanadi. Adib ushbu asar voqealari, undagi qahramonlarni o‘quvchiga tushunarli qilib tasvirlaydi. Muallif nutqi badiiy asar qurilishida asosiy o‘rinni egallaydi. U barcha asarlarning hikoyasi, har bir personajning o‘rnini, o‘y-kechinmalarini, fikr-mulohazalarini, harakatlantiruvchi muhitning shart-sharoitlarini, muomalamunosabatlarini tar‘rif-tavsiflash, ko‘rsatish orqali – hammasini bir maqsadga – asarda ifodalanayotgan fikr-g‘oyani ro‘yobga chiqarish uchun harakatga keltiradi. “Qaldirg‘och” qissasida ham Tohir Malik voqealarni bor murakkabligi, ikir-chikirlarigacha batafsil tasvirlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авлоний А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 1998.
2. Малик Тоҳир. Қалдирғоч. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 98.
3. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 75.
4. Sultonov. I Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 2005.
5. Қуроноу. Д. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, 2010.
6. M Abjalova, U Rashidova, S Rasulova, S Sharipova - 2025 10th International Conference on Computer ..., 2025.
7. www.adabiyot.uz